

VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

Tovar aylanmasi

2025- yilning yanvar-iyunida chakana tovar aylanmasi 12 852,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	12 852,0	108,2	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	11 236,7	108,1	87,4
undan fuqarolarning xususiy mulki	1 615,3	109,0	12,6












Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-iyun oylarida 12 852,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-iyun oylarida 6 688,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,2 foizga o'sdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	12 852,0	108,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	4 548,0	109,4	35,4
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	6 688,6	107,2	52,0
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1 615,3	109,0	12,6




Uyushmagan savdo tovar aylanmasi




<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>410,5 mlrd. so'm</p>  <p>56,5 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>110,5 mlrd. so'm</p>  <p>15,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>31,3 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>49,4 mlrd. so'm</p>  <p>6,8 %</p>	<p>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>18,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>18,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>36,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>22,5 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>7,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>7,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>13,1 mlrd. so'm</p> <p>1,8 %</p>




2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 726,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (410,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 888,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 615,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 232,8 mlrd. so'mni, otlar 36,4 mlrd. so'mni, parrandalar 3,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar
393,5 <i>mlrd. so'm</i>	170,6 <i>mlrd. so'm</i>	51,5 <i>mlrd. so'm</i>
 44,2 %	 19,2 %	 5,8 %

Qo'yla	Otlar	Echkila
135,1 <i>mlrd. so'm</i>	36,4 <i>mlrd. so'm</i>	97,7 <i>mlrd. so'm</i>
 15,2 %	 4,1 %	 11,0 %


Kurka, o'rdak, g'oz,	Tovuqlar	Quyionlar
0,9 <i>mlrd. so'm</i>	2,7 <i>mlrd. so'm</i>	0,1 <i>mlrd. so'm</i>
 0,1 %	 0,3 %	 0,1 %



Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 095,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 470,5 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 118,9 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 3 625,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 108,7 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining savdo tovar aylanmasi 9 280,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,6 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8 foiz bo'lib, 3 514,8 ming so'mni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 12 852,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 641,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,1 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 3 906,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,3 %), jismoniy shaxslarning savdo tovar aylanmasi 6 688,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 615,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,0 %) tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahri (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (30,6 %), Shahrisabz shahri (8,2 %), Koson (7,4 %) va Chiroqchi tumanlari (5,5 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 641,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,1 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 12 210,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,0 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (jamiga nisbatan foiz hisobida)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	641,7	110,1	12 210,2	108,1
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	247,7	95,6	3 549,3	108,8
Shahrisabz sh.	36,6	128,4	1 000,4	109,7
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	28,2	126,9	493,0	107,3
Dehqonobod	6,8	180,7	428,9	106,3
Qamashi	22,5	294,2	755,2	105,7
Qarshi	7,8	130,1	338,1	111,1
Koson	48,4	86,9	882,8	110,6
Kitob	12,9	110,6	658,2	108,5
Mirishkor	3,5	113,9	456,1	106,9
Muborak	26,3	1 710,7	327,2	103,8
Nishon	4,6	132,2	479,7	107,1
Kasbi	5,0	120,0	507,0	106,5
Ko‘kdala	26,4	99,4	317,1	108,3
Chiroqchi	26,2	119,0	657,1	107,1
Shahrisabz	65,5	99,9	426,1	108,2
Yakkabog‘	12,6	180,9	564,7	105,7

2025- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘shish sur‘ati bo‘yicha Qarshi shahri (111,1 %), Koson tumani (110,6 %) Shahrisabz shahri (109,7 %), Kitob tumani (108,5 %), Ko‘kdala (108,3 %), Shahrisabz tumani (108,2 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,0 foizni tashkil etib, yirik korxonalarning eng katta ulushi Shahrisabz tumanida (13,3 %), Ko‘kdala tumani (7,7 %), Muborak tumani (7,5 %), Qarshi shahrida (6,5 %) kuzatildi.